



MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING SHARQONA ILDIZLARI VA EVOLUTSIYASI

Ravshanqulov Bunyod Bahodir o'g'li

O'zMu "Falsafa va mantiq" kafedrasi 2-kurs magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8017713>

ARTICLE INFO

Received: 30th May 2023

Accepted: 07th June 2023

Online: 08th June 2023

KEY WORDS

Qadriyat, axloq, axloqiy qadriyat, milliy qadriyat, millat, xalq, siyosat, ijtimoiy guruhlar, oila, evolutsiya, sharqona.

ABSTRACT

Maqolada sharq xalqlarida qadriyatshunoslik sohasidagi amalga oshirilgan evolutsion konsepsiyalarda ilgari surilgan masalalar va erishilgan yutuqlar misollar va adabiyotlar tahlili orqali keltirib o'tilgan. G'arb falsafasidagi aksiologik nazaryalarning g'arb aksiologik nazaryalari bilan farqi shundaki, g'arb aksiologiyasida inson masalasi ilgarilab ketgan bo'lsa sharq aksiologiyasida esa insonning axloqi va ma'naviyati masalalari siyosatga ta'sir etuvchi vosita darajasida o'rganilgan.

Kirish

Mazkur maqolada sharq xalqlarining qadriyatlari va ularni tarixiy asosalari, solishtirma natijalari, sharq faylasuflarining aksiologik ta'limotlari yoritib berilgan. Sharqona qadriyatlarning inson va jamiyat ma'naviyatiga ta'siri masalalari ko'rsatib o'tilgan. Va albatta, sharq xalqlari faylasuflarining tendensiyalarida ilgari surilgan aksiologik qarashlarining davlat siyosati va millat taraqqiyotiga aloqadorligi masalalari muhokama qilingan.

Adabiyotlar tahlili

Ushbu maqolani tahlil qilish jarayonida sharq olimlarining, faylasuflarining va yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning fikr va ta'limotlarida ilgari surilgan sharqona aksiologik nazaryalar masalasida baxs yuritilgan. Tadqiqot jarayonida qadriyatlarning shjarqona o'ziga xosligi alohida tahlil qilingandir.

Muhokama va natijalar

Sharq qadimiy madaniyat o'chog'i va jahon sivilizatsiyasining beshigidir. Qolaversa, vatanimiz sivilizatsiyasining sharq sivilizatsiyasi quchog'ida voyaga yetgani va uning qadriyatlarini o'zida aks ettirganini, unga va butun dunyo madaniyatiga ulkan tasir ko'rsatganini doimo anglanadi. Sharq falsafasi taraqqiyotining ilk davrlari aynan bizning vatanimiz o'tmishini, Misr, Bobil va insoniyat tarixining eng qadimgi sivilizatsiyalaridan biri bo'lgan Shummer davlatlarini esga oladi, bularning xar biri insoniyat tarixida jamiyat hayoti qadriyatlar tizimining o'ziga xosligi muayyan tarzda namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Xar bir narsaning asosi va ildizi bo'lgani singari aksiologiyaning ham o'z ildixlari mavjud biz yuqorida aksiologiyaning g'arbona ildizlariga to'xtalib o'rdik quyida esa uning sharqona asoslari bilan tanishamiz.



Zero, qadimgi ajdodlarimizning qarashlari o'ziga xos ta'limotlarining asosiy tamoyillari ustivordir. Hozirgi kunda "qadriyat" kategoriyasi, "qadriyatlar tizimi" tushunchasi va ularning asosiy shakllari hamda namoyon bo'lishi xususiyatlarini ilmiy tahlil qilishning tarixiy, zamonaviy falsafiy- aksiologik va boshqa jihatlari bor. Bu tomonlarini o'rganish: qadriyatshunoslikning tarixiy ildizlari va bu borada erishilgan yutuqlarni ilmiy o'rganish qadriyat va uni namoyon bo'lish shakllarining amaliyoti bilan bog'liq muammolarni aniqlashdan iborat. Qadriyatlarining mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllari bilan borliq muammolarining tahlili uzoq tarixga ega. narsa va xodisalar, odamlar o'rtasidagi munosabatlarga baho berganlar, ularning qadri va qimmatini to'g'risida fikr yuritganlar.

Qadimgi hindlarning eramizdan avvalgi IV asrlarga mansub bo'lgan "Artxashastra" risolasida "qadriyatlar to'g'risidagi fan" xaqida fikr yuritiladi: "Boylik, qadriyatlar, inson hayotini ta'minlaydi. Odamlar yashayotgan er qadriyatlidir. Biz qadriyatlar to'g'risidagi fan deb atayotgan haqiqiy fangina bunday erga ega bo'lish va uni saqlash uchun vosita bo'lib xizmat qiladi".¹ Sanskrit tilida "artxa" "boylik", "qadriyat"; artxashastra esa qadriyatlar to'g'risidagi, boylik haqidagi fan degan ma'noni beradi.

Sharq xalqlari orasida o'zining donishmandligi bilan tanilgan Xitoy falsafasi vakillari ham aksiologiya sohasida sezilarli darajada ishlar va izlanishlar olib borgan. Qadimgi Xitoy falsafiy tafakkurida xam qadriyat to'g'risidagi tasavvurlar va tushunchalarning qanday paydo bo'lganligi va rivojlanganligini kuzatishimiz mumkin. Bu yerda ham falsafiy tafakkur dastavval olamni mifologik tasavvur etishga asoslanadi. Biroq bu uning rivojlanmaganligi va "tarixan cheklanganligidan" emas, balki unda olamga bo'lgan munosabat avval boshdanoq qadriyatli harakterda bo'lganligidan guvohlik beradi. Qadimgi Xitoy falsafasida olamni qadriyatli idrok etishga bo'lgan intilish ancha kuchli bo'lgan. Bu turlicha falsafiy ta'limotlarda olamni birlamchi elementlari "osmon, yer, suv, olov va x,k" ning qadriyatli talqin etilishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Konfutsiy (eramizdan avvalgi 551-479) tomonidan tuzilgan va qayta ishlangan "Shu szin" ("Tarix kitobi" yoki "Hujjatlar kitobi") da insonning besh qobilyati: tashqi qiyofa- bu fazilat, u xulq-atvorni qatylashtiradi, nutq- haqiqatga amal qilishiga va so'zining ustidan chiqishiga imkon beradi, ko'rish xossasi- nazokatli va ehtiyotkor bo'lishiga, tafakkur xossasi- donishmand bo'lishiga imkon beradi. Shu asosda besh hil baxt (uzoq umr ko'rish, boylik, tana sog'ligi, ruh hotirjamligi, "donishmandlikka muhabbat", " osoyishta vafot etish" va olti baxtsizlik (falokat tufayli umrning qisqarishi, kasallik, musibat, qashshoqlik, tananing majruhligi, aql ojizligi) alohida ta'kidlanadi.² Konfutsiy qarashlarini o'zida aks ettirgan "Lun yuy" kitobida nimani foyda va nimani zarar keltirishi haqida shunday deyiladi:

Quvonchning uch turi foyda keltiradi:

1. urf-odatga muvofiq ravishda qilgan xatti xarakatlaridan va musiqadan quvonsang;
2. odamlarga ezgu ishlar haqida gapirsang;
3. donishmand odamlar bilan do'st bo'lsang. Biroq xursandchilik zarar keltirishi ham mumkin: isrofgarchilikka berilishdan, bekorchilikdan va maishatbozlikdan quvonsang, u zarar keltiradi.

¹ Артхашастра или Наука политики. М. Л. 1959. С. 492

² Древнекитайская философия. Собрание текстов. В2-х Т.-М.: Мысль.1972.Т.1.С.105



Konfutsiy olijanob erkakning beshta sifatini alohida ta'kidlaydi: "Olijanob erkak ezgu ishlarni qilishida isrofgarchilikka yo'l qo'ymaydi; u zo'r berib mehnat qilar ekan, achchiqlanmaydi; istaklarida xasis, ulug'likka mag'rur emas; u xurmat qozonadi, biroq qattiqqo'l emas".³

Konfutsiy ta'limotida "Jen" - insonparvarlik, insonga muxabbat, odamiylik, mexribonlik, fozillik, hamdardlik singarin ma'nolarni anglatadi. Bu tushuncha zaminda ikki yarim ming yildan keyin o'z ahamiyatini yoqotmagan qadriyatli sifat nazarda tutiladi. Shogirdining jen to'g'risidagi savoliga Konfutsiy javob berib shunday degan edi: "O'zing istamaganni boshqalarga ham qilma, o'shanda davlat ham, oilada ham hech kim senga dushmanlikni his etmaydi".⁴ Anglashiladiki qadimgi xitoy falsafasida "qadriyat" falsafiy kategoriya sifatida emas balki kundalik turmushda qanday bo'lsa, shunday ma'noda qo'llanilgan. Bioq, shunga qaramay, masalaning xursandchilik yoki do'stlikning qanday turi foyda yoki zarar yetkazadi tarzida qo'yilishi uning aksiologik muammo ekanligidan dalolat beradi. Konfutsiyning shogirtlaridan biri bo'lgan Yu -szi shunday degan edi: "Urf-odatlardan foydalanish shuning uchun qadrligi, u kishilarni murosaga keltiradi". Uning so'zlarida aksiologik yondashuv o'z ifodasini topgan edi. "Qadimgi hukmdorlarning yo'li go'zal edi. Ular o'zlarining katta-kichik ishlarini urf-odatga muvofiq amalga oshirganlar".⁵ Bunday qadriyatli yondashuvni biz qadimgi xitoy falsafasining bir ta'sirchan ta'limoti bo'lgan daosizm ham ko'rishimiz mumkin. Bu ta'limot "Dao de szin" / "yo'l va ezgulik kitobi" / da o'z ifodasini topgan. Bu kitob Konfutsiyning zamondoshi Lao- szi qalamiga mansub edi. "Dao de szin" da foyda va zarar singari qadriyatli tushunchalar tog'risida, turli xodisa va predmetlarni baholash xususida gap ketadi

Lao - szi o'zi g'oyat qadrlaydigan "uch xikmat" haqida shunday deb yozgan edi: "birinchisi- bu, insonni sevis, ikkinchisi-tejamkorlik, uchinchi-boshqalarning oldiga o'tib keta olmayman". Risolada fozillik, haqiqat, rostgo'ylik, samimiyat, shan-shavkat, boylik, go'zallik singari qadriyatli xodisalar va ularning ziddi bayon etilgan. Lao-szi kishilarni muayyan qadriyatli yo'nalishga-dao (barcha narsalarning tub asosi) ga amal qilishga chaqiradi. Uning fikricha, dao yuksak darajada qadrlangan va kishilar boylikka ortiqcha intilmaganlar. Lao szining izdoshlaridan biri CHjuan-chjou (eramizdan avval 369-286) daosizm g'oyalarini izchil davom ettirib, o'zining "chjuan-szi" kitobida barcha qadriyatlarning nisbiy xarakterga ega ekanligini ta'kidlaydi. "Osmon ostida kimning go'zallik xaqidagi bilimi haqiqat?- deb yozadi mutaffakkir.

Qadriyatning nisbiyligini tushinish uning insoniy tabiatini tushunishga, uning insonga daxldorligini, inson uchun qimmatli ekanligini anglashga imkon beradi. Biroq faylasuflar insoniyat olamidagi go'zallik va hunuklik, adolat va adolatsizlik, baxt va baxtsizlik turli davrlar va turli xalqlar tasavvurida nozik chegaraga ega ekanligini ko'rdilar. "Agar nodir predmetlar qadrlanmaganda, xalqlar o'rtasidagi o'g'riliklar bo'lmas edi"-deydi "Dao de szin"da. Shuning uchun ham donishmand kishilar qiyinchilik bilan topilgan predmetlarni qadrlamaydilar. Qadimiy Xitoy mutafakkirlari qadriyatlarining nisbiyligini ta'kidlaydilar,

³ Древнекитайская философия. Собрание текстов. В2-х Т.-М.: Мысль.1972.Т.1.С.160.

⁴ Древнекитайская философия. Собрание текстов. В2-х Т.-М.: Мысль.1972.Т.1.С.142.

⁵ Древнекитайская философия. Собрание текстов. В-х Т.-М.: Мысль.1972.Т.1.С.142.



biroq ularning o'rtasiga tenglik alomatini qo'ymaydilar, relyativizm cheksiz emas deb xisoblaydilar. Qadimgi Xitoy mutafakkirlarini xizmati shunda ediki, ular subyektiv bahoning nisbiyligini ta'kidlabgina qolmay, qadriyatlarining o'zi ham obyektiv nisbiy xarakterga ega ekanligini ko'rsatdilar.

Bizning ota bobolarimiz ham o'z davrida aksiologiya sohasida o'z fikrlariga ega bo'lganlar. Birgina, Xorazmiy bobomiz olimning qadri o'tmishdoshlari fikrlarini kelajakka xokisor yetkazib berishda, xisoblar edi. Mutafakkir quyidagicha yozadi: "O'tmish davrlarda o'tgan olimlar fanning turli tarmoqlari... sohasida asarla yozish bilan o'zlaridan keyin keladigan larni nazarda tutadilar... Ulardan biri o'zidan avvalgilardan qolgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi, uni o'zidan keluvchilarga meros qoldiradi, boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, bu bilan qiyinchiliklarini osonlashtiradi.... O'zidan avvalgilar xaqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabbburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi".⁶ Bu so'zlar butun sharq limlari uchun umumiy talab va axloqiy kamolot mezonini, ular ma'naviy qiyofasining ustuvor xususiyati sifatida namoyon bo'ladi.

Qadriyatlar muammosi Abu Ali Ibn Sinoning(980-1037) ham diqqat markazida turgan. Olim asarlarining katta qismi falsafiy muammoga bag'ishlab yozilgan, afsuski ularning ko'pchiligi (masalan, «Adolat» nomli falsafiy ensiklopediyasi, « Sharq falsafasi», « Yaxshi ish va gunox « asarlari) bizgacha yetib kelmagan. Qadriyatlar muammosi Ibn Sinoning « Donishnoma», « Soloman va Ibsol « kabi bizgacha yetib kegan asarlarida o'z ifodasini topgan. Uning nazarida o'z ibtidosini Ollohdan olga borliq va tabiat insonni o'rab turuvchi abadiy makondir. Shu jihatdan uning qadri beqiyo, inson esa hamma boyliklarni tabiatdan oladi, undan o'ziga davo topadi. Ibn Sino inson, uni o'z-o'zini idora qilishi haqidagi fanlarining axamiyatini to'g'ri ta'kidlaydi.⁷

Qadriyatlar haqida gap borar ekan sharqda mashxur bo'lgan tasavvuf oqimining aksiologiya sohasida ham o'z o'rnini bor. Tasavvuf g'oyat murakkab va serqirra diniy-falsafiy oqim bo'lib, uning qadriyatlar tizimida eng asosiy o'rinni Olloh, u bilan bog'liq ilohiy qadriyatlar shariat, tariqat, haqiqat va ma'rifat g'oyalari egallaydi. Lekin tasavvuf falsafasini faqatgina anashu jihatlar bilan tariflashning o'zi yetarli emas. Bu borada chet el islomshunoslari olimlarning asarlari anchagina. " Biroq hanuzgacha tasavvuf ta'limoti batamom o'rganilgan va uning tarixi, dunyoqarashi xususida aniq, yaxlit xulosalar chiqarilgan, deb ayta olmaymiz".⁸

Markaziy osiyoda o'rta asrlarda qadriyat masalasini olg'a surgan mutafakkirlardan biri Abu Nasr Farobiy edi. U jahon madaniyati ravnaqiga katta hissa qo'shgan qomusiy olim, mashxur faylasuf ham edi. U yunon falsafasini keng sharxlagan va uni musurmon olamiga keng yoygan. Farobiy o'rta asrlar sharoitida ta'lim tarbiya, axloq, ma'rifat, e'tiqod, tinlik va mehnat singari umuminsoniy qadriyatlarni ulug'ladi. Farobiy barcha kishilarni o'zaro hamkorlik va totuvklikka chaqirgan, dunyosda yagona insoniyat hamjamiyati bo'lishini orzu qildi.

⁶ Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. - Toshkent. Fan, 1983. 59 – bet.

⁷ Абу Али Ибн Сино. Тиб Конунлари. 1 китоб. Т.: Мепрос. 1993. 5 –бет.

⁸ O' rta Osiyo xalqlari xurfikirligi tarixidan. -T.: Fan, 1990. 104-bet



Farobiy ko'proq inson va uning baxtli hayoti masalalari bilan qiziqdi. U o'zining "Davlat arbobining hikmatlari" risolasida inson qadri haqida va uni kamsituvchi jamiyatni qoraladi, doimiy urushlarga va bosqinchilikka asoslangan jamiyatni adolatsizlik, johil jamiyat sifatida tanqid qilgan. Uning fikricha baxt saodat yaxshi axloq, ilm, mehnat, o'zaro yordam va hamkorlik singari umumbashariy qadriyatlar orqali qo'lga kiritiladi. Qomusiy olim o'z asarlarida komil va fozil kishilarning ibratli xulq-atvorini ulug'lagan edi. Kishilarni ezgulikka da'vat etgan. Yurtimizdan yrtishib chiqqan va butun dunyo ilm taraqqiyotiga xissa qo'shgan yana bir buyuk olim vatandoshimiz Abu Rayxon Beruniy ilm-ma'rifat, ona-Vatanga muhabbat, sadoqat va xurmat singari umumbashariy qadriyatlarning mamlakat ravnaqi va obodonchiligi yo'lidagi ahamiyatini alohida takidlagan: "Xar bir insonning qadr-qimmati o'z ishini qanday bajara yotgani bilan o'lchanadi. Insonning tilak va xoxishlari mehnat tufayligina amalga oshirilishi mumkin".⁹ Beruniy o'zining bu fikrlari bilan qadriyatlar sohasida ham yorqin iz qoldirgan. Mashxur hadisshunos olim "Imom-al Buxoriy bu sohada o'ziga asosiy dasturulamal qilib olgan ehtiyotkorlik maslagi uning diyonat, iymon-ixlos va xudojo'ylikda yuksak darajaga erishganini ko'rsatadi".¹⁰ Yana bir buyuk allamo Termiziyning asarlarida ilm negallash, talim tarbiya, poklikva sahiylik kabi insoniy qadriyatlar fikr yuritgan. Imom-at Termiziyning "Al-jome'as-sahih" yoki uning boshqacha nomi "as-Sunan"(sunnatlar) kitobida axloq va xulq odob qoidalariga alohida etibor qaratilgan. Unda o'zgalarga yaxshilik qilish xayrli ishlar bilan mashxur bo'lishning avzalligi to'grisida so'z yuritiladi. Bu kitobdagi hadislarda xuswusan, sadaqaning moxiyati xaqida shunday deyiladi: "odamlarga xayrixoxligining bu sening sadaqang", "xayrli va yaxshi ishlar qilishga da'vat etishing va zulmdan qaytarishing sening sadaqang", "adashgan kishilarga yo'l ko'rsatishing ham sadaqa", "xatto kambag'allarga xush muomalada bo'lishing ham sening sadaqang", "yerda xalaqit berib yotgan biror tosh, tikanak yoki suyakni bir chetga olib qo'yishing ham sadaqa xisoblanadi". Keltirilgan hadislardan ko'rinib turibdiki Muhammad Payg'ambar(s.a.v.) sadaqani juda keng ma'noda tushunib, inson zotiga qilingan butun yaxshiliklar, xayru-ehsonlarning majmuini sadaqa deb bilganlar. Mazkur asarning "as-Sunan" (sunnatlar) nomi bilan (Sunan at-Termiziy)" atalishi asosan unda fiqh masalasiga doir ahkom hadislar juda ko'p ekanligidir. Shu bilan birga asarda pand-nasixat axloq-odob, go'xal xulq fazilatlar xususida ham juda ko'p hadisi shariflar keltirilgan.¹¹ Amir Temur o'z hayotini Movaraunnahr xalqining farovonligi, yurt obodligi uchun sarflagan. Uning davrida hashamatli binolar qurilish inshootlari, go'zal bog'lar bunyod qilindi, madrasa va masjidlar qurildi. Mamlakatimiz Sharqning go'zal xududdiga aylantirildi. Temurning ulkan xiamati shundaki u madanyat va ilm-fan homiysi sifatida mashxur bo'lgan. O'z saroyiga olimu-fuzalolar va olimlarni jamladi. Temuriylar davrida tassavvuf ta'limoti keng quloqch yoydi. Sohibqiron tassavvuf qoidalaridan mamlakatdagi salbiy illatlarni yoqotishda turli janjal nizolarni bartaraf qilishda, haqiqat va adolat o'rnatishda insonparvarlik g'oyalarini tarqatishda foydalangan. "Temur tasavvufdsagi poklanish, to'g'ri va sofdil bo'lish, xarom xarish ishlardan qochish, xalol mehnat qilish, biror

⁹ Беруний.Танланган асарлар. 5 томлик Т.: Фан 1982 3 т.Б. 88.

¹⁰ Ubaydulla Uvatov. O'zbekiston – buyuk allomalar yurti- Toshkent, Ma'naviyat,2010,-23-bet

¹¹ Ubaydulla Uvatov. O'zbekiston – buyuk allomalar yurti- Toshkent, Ma'naviyat,2010,-39-bet



kasbni egallash ,muxtojlariga mexr shavqat ko'rsatish kabi g'oyalarni xalqqa singdirish uchun kurash olib bordi."¹²

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki dunyo aksiologiyasini sharq xalqlarining milliy va diniy qadriyatlarining o'rnisiz tasavvur qilish juda mushkul. Sharq faylasuflari tomonidan ilgari surilgan nazaryalar va ularning tarixiy asosgan tayangan mazmuni aksiologiya sohasida juda muhim o'rin egallaydi.

Ayniqsa bugungi taxlikali zamonda sharqona aksiologiya evolutsiyasida ilgari surilgan oila, axloq, milliylik, diniy qadriyat masalalarida berilgan tavsiyalar yosh avlodni ma'naviy kamolotida muhim o'rin egallaydi. Ushbu maqola yosh avlod tarbiyasi hamda aksiologiya sohasida tarixiy asoslarga ega ma'lumotlarni jamiyatga yetkazib berishda xizmat qiladi.

References:

1. Артхашастра или Наука политики. М. Л. 1959. С. 492
2. Древнекитайская философия. Собрание текстов. В2-х Т.-М.: Мысль.1972.Т.1.С.105
3. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar.-Toshkent. Fan,1983.59 – bet.
4. Абу Али Ибн Сино. Тиб Конунлари.1 китоб. Т.:Мерос.1993. 5 –бет.
5. O'rta Osiyo xalqlari xurfigirligi tarixidan.-Т.:Fan,1990. 104-bet
6. Беруний. Танланган асарлар. 5 томлик Т.: Фан 1982 3 т.Б. 88.
7. Ubaydulla Uvatov. O'zbekiston – buyuk allomalar yurti- Toshkent, Ma'naviyat,2010,-23-bet
8. Ubaydulla Uvatov. O'zbekiston – buyuk allomalar yurti- Toshkent, Ma'naviyat,2010,-39-bet
9. Nzarov Q.O'zbek falsafasi-Toshkent, O'zbekiston fayulasuflari milliy jamiyati nashriyoti,2013,-131 bet

¹² Nzarov Q.O'zbek falsafasi-Toshkent, O'zbekiston fayulasuflari milliy jamiyati nashriyoti,2013,-131 bet